International Conference on
Linguistics, Literature And Translation

International Conference on Linguistics, Literature And Translation - double-blind peer-reviewed, monthly, open-access procedding published to get ecxellence on Research and Development. It publishes high-quality articles across the breadth of linguistics, literature and translation research. With its uniquely broad coverage, all articles are free to access across the globe, allowing authors to share their research and maximise its impact. The boletin on Linguistics, Literature And Translation is led by expert international editorial board members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed and evaluated on its own scholarly merits and research integrity. Joining your work in the International Conference of Linguistics, Literature, and Translation means you will receive prompt and reliable publishing and a global platform for your research to reach its full potential.

THE AESTHETIC FUNCTION OF THE LOVER-MISTRESS-RIVAL TRIO

Boymuratova Nargiza Bozorboyevna
Independent recearcher at the Department of Uzbek Literature and Textual Studies, Tashkent State University of Uzbek, Language and Literature named after, Alisher Navoi

ABSTRACT

The article provides information about the figurative meanings of the images of lover-mistress-rival, the essence of the content, and the methods used in the works of Lutfi and other poets as examples.

KEYWORDS: The article provides information about the figurative meanings of the images of lover-mistress-rival, the essence of the content, and the methods used in the works of Lutfi and other poets as examples.

Obraz tushunchasi – adabiyotning oz‘iga xos qismi bo‘lib, unda ijodkorning his tuyg‘ulari an’anaviy yoki o‘ziga xos uslubda ifodalanadi. Adabiyotning g‘azal janrida ham obrazlarning o‘z ma’no mazmuni, ichki bog‘liqligi, takomili va ma’naviy xususiyatlari mavjud. G‘azalda insonning odamga va olamga, jamiyatga va ilohiyotga munosabati obrazlar vositasida ifodalanadi. Adabiyotshunos olim Bahodir Sarimsoqov bu boradi shunday fikr bildiradi: “Badiiy obraz voqelikni , hayotiy mushohadalarni, taassurotlarni ijodkor dunyoqarashi, estetik ideali orqali qayta ishlanishi oqibatida yangidan yaratilishidan iborat. Binobarin, badiiy obrazning mohiyati voqelikning badiiy umumlashmaga aylanganligi va betakror alohidalikda aks ettirilganligi yoki ifodalanganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham badiiy obrazning umumlashganligi voqelikni bevosita o‘z qobig‘ida aks ettirishga qaraganda keng va chuqurroq qamrab oladi”[1] . Badiiy obraz ijodkorning maqsadi, ilmiy salohiyati, tafakkuridan kelib chiqqan holda qayta qo‘llangan adabiy mahsulidir. Arab va Fors adabiyotida keng qo‘llanilgan badiiy obrazlar asta sekinlik bilan turkiy adabiyotga ham kirib kela boshladi. Qur’on oyatlari, ruhiy holatlar, xalq og‘zaki ijodi va tabiat bilan bog‘liq obrazlar shular jumlasidandir. Shuningdek g‘azallarda qo‘llangan poetik obrazlarda davr va zamon talabalari, fikriy, hissiy ehtiyoj ham yaqqol ko‘rinib

[1] Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: “Bookmany print” nashriyoti, 2022. –B.135.

turadi. Bunda badiiy tasvir vositalarining ham alohida o‘rni bor.

Shoirlar ijodida uchraydigan ko‘ngil obrazi ham lirik qahramon ruhiy holatini yorqin o‘zida aks ettiradi. Husayn Voiz Koshifiy shunday deydi: Ko‘ngil uyini riyozat supurgisi bilan changu g‘ubor, chiqindilardan tozalab turish lozim, toki ko‘ngil ishq sultoni o‘tiradigan taxtga aylansin…. Zero, madomiki, ko‘ngil dunyo taalluqoti-tashvishlari g‘avg‘osidan qutulmas ekan, u Do‘st muhabbatining makoniga aylanmaydi:

Ko‘ngil tokim taalluq zangidin pok o‘lmas,

Jamoli Zuljalol g‘ayb pardasidin jilo etmas.

Lutfiy esa:

Lutfiy qul kirmas bitikka ko‘p nasihat qilmangiz,

Kim aning devona ko‘ngli ishq farmonindadur[2] .

Allohga qul bo‘lgan Lutfiy ko‘ngli ishq kuyida devonakim, ayni damda hech bir nasihat qulog‘iga kirmas. Ilohiy sevgi bulog‘i otilib chiquvchi ko‘ngil deb atalmish manzilni irfoniy zavq makon tutadi, ilohiy muhabbatga tashna qalblar bu buloqdan suv ichib vujudini poklaydi. “Tasavvufda dini, irqi, mazhabi, millatidan qat’iy nazar olam xalqini birlashtiradigan yagona ibodatgoh bor. Bu tasavvufiy hayotning bosh manbai – dil va ko‘ngul atalmish Alloh taxtidir”[3]. Ko‘ngil ma’naviy, ma’rifiy sir asrorlar makoni, ruhiy qiymatning belgisidir. Insonning orzu niyatlari, zavq shavqi, sog’inchi, mehru muhabbati birinchi ko‘ngilda paydo bo‘ladi. Imom G‘azzoliy esa “Tasavvuf qalb ila mashg‘ul etadigan bir ilmdir. Qalbdan xayol va vahm pardasining qalqishi o‘lim ila bo‘lganidek, ba’zan tiriklikda ham barham topadi. Ya’ni, uxlamasdan va o‘lmasdan ham qalb eshigi malakut olamiga qarab ochiladi. Bu esa qulning xohish ixtiyori ila emas, Allohning lutfi bilan bo‘ladi va qalb ilimning nurlari bilan to‘ladi hamda undan oydinlashadi”[4]. Ko‘ngil Haq mahzargohi, Lutfiy o‘z ijodida bu manzilni chinakam ma’naviy-ruhiy hayotning ko‘zgusiga aylantira olgan:

Meni shaydo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul,

Xoru tasvo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

Dushmanu do‘st orasinda meni g‘ofilni mudom,

Besarupo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul.

O‘zgadin ko‘rma ko‘zing yoshini, ey Lutfiy,

Ayni daryo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul[5] .

Ko‘ngul radifi bilan yozilgan ushbu g‘azalda Lutfiy oshiq ko‘nglining holatlarini go‘zal tarzda ifoda etgan, ya’ni: shoir ko‘ngil obrazi orqali o‘z his tuyg‘ularini ifoda etmoqda. G‘azalning zohiriy ma’nosiga qaraydigan bo‘lsak uni butunlay tobe qilgan, turli holatlarga soladigan bu uning ko‘nglidir. Ayni damda bu ko‘ngil uni oshiq, xoru rasvo, qaddini egik, qorong‘u kechada jonini qiynab ko‘z yoshlarini daryo qildi. Haqqa oshiq ko‘ngilda o‘zga ishqqa o‘rin yo‘q, bu manzil irfon manzili, ishq manzilidir, aytishimiz mumkunki Lutfiy ko‘ngli ham ilohiy ishq bilan sug‘orilgan:

Qadu og‘zinga boqsam, oh derman,

Seni ko‘rgan sayin, “Alloh” derman.

Tilar ko‘nglum seni olamdau bas,

Bu nisbattin seni dilhoh derman(Lutfiy 2012, 198).

[2] Lutfiy. Devon.G‘.G‘ulom nashriyoti. –T.,2012. -B.110
[3] I. Haqqulov. Irfon va idrok. –T., 1998. –B. 88
[4] G‘azzoliy. Mukoshafat – ul- qulub. –Istanbul, 1986. –B. 88
[5] Lutfiy. Devon. 164-bet

Alloh nomi bilan oh deguvchi Lutfiy ko‘ngli bu olamda Haqni dilga yaqin oladi.

To ko‘nglum urdi dam yuzung oyi havosidin,

Har subhidam yorug‘luq olur kun safosidin.

Qolsam baloga ko‘nglum elindin g‘arib emas,

Kim jon salomat eltti ko‘ngulning balosidin.

Har necha husn kishvarining podshohisen,

Andisha qil bu Lutfiy gadoning dousidin(Lutfiy 2012, 197)

Shoirning oshiq ko‘ngli oy yuzi hyavosidan urib turibdi, har tong kunning pokligidan yorishad, ko‘ngil bilan jon shunchalik tutashib ketganki, ko‘ngil balodan xoli bo‘lsa jon ham salomatlikda bo‘ladi, sen husn elining podshohisan, Lutfiy duolaridin andisha qil deydi. Tasavvufada husn shohi deya Alloh taologa murojaat qilinadi, gado bu banda. Bu misra Allohning tongda Yaratganga iltijo qilib duo qiladigan bandalarimning duosini ijobat qilmaslikka hayo qilurman degan gaplariga ishora ma’nosini ham tushunishimiz mumkun.

“She’riyatda inson ruhiyati, his-tuyg‘usi, ma’naviy olami, botiniy sir – asrorini yoritishda eng faol poetik obraz darajasigacha ko‘tarilgan so‘z ko‘ngildir. Ko‘ngil Alisher Navoiyga qadar ham g‘oyaviy va badiiy jihatdan keng qo‘llanuvchi, shoir his tuyg‘ularini, kechinma va holatlarini gavdalantiruvchi hayotbaxsh obraz darajasiga ko‘tarilgan. Alisher Navoiy ijodida esa bu obraz yanada boyidi, o‘quvchi diqqat e’tiborini she’riyatga chuqur jalb etuvchi g‘oyaviy badiiy asosga aylandi”[6] . Ma‘lumki tasavvuf ilmi shariatdagi eng fazilatli ilmlardandir. “ Nu‘mon ibn Bashir roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Rasulullohu sollallohu alayhi vassalam: “ogoh bo‘ling, jasadda bir bo‘lak go‘sht bor, agar o‘sha taqvoli bo‘lsa, jasadning hammasi taqvoli bo‘ladi, agar u buzilsa, jasadning barchasi buziladi, ogoh bo‘ling u qalbdir”[7] , deganlar. Musulmon inson qalbini pok saqlash bilan butun tana a‘zolarini taqvoda saqlaydi va amallarini ham shariatga muvofiq go‘zal olib boradi.

Shuningdek badiiy adabiyotda “ oshiq - ma’shuqa – raqib” obrazlari ko‘zga tashlanadi. “Triada (yunoncha – uchlik) – borliq va tafakkur taraqqiyotining uch bosqichligini bildiruvchi falsafiy termin. Falsafiy tuzilish usullaridan biri. Antik davr platonchilik va neoplatonchilikda keng qo‘llanilgan. Platonchilik vakillari borliqning boshlang‘ich uchligi (namuna – demiurge – namuna) va uch bosqichi (aql – ruh – kosmos) to‘g‘risidagi ta‘limotni bayon qilganlar. Triada ta’limotining Ploton, Profiriy, Fixte, Shelling, Hegel kabi namoyondalari bo‘lgan. Triada tamoili nemis klassik idealizmida keng rivoj topgan. Ma‘lumki, triada Hegelning falsafiy sistemasida dialektik taraqqiyotini tavsiflash uchun qo‘llangan rivojlanish sxemasi (tezis, antitezis, sintez) ni ifodalaydi. Donishmand Pifagor fikricha, “triada – havoyi, samoviy alomat”[8].

Diniy – irfoniy asarlarda oshiq - ma’shuqa-raqib obrazlari bevosita Qur’oni karimdagi Odam Ato, Momo Havvo va iblis uchligiga oid jannatdan quvilish qissasiga borib taqaladi. Qur’oni karimning Baqara surasi 30-oyatida “Esla, vaqtiki Robbing farishtalarga : “ Men yer yuzida xalifa qilmoqchiman”- dedi. Ular: “Unda fasod qiladigan, qon to‘kadigan kimsani qilmoqchimisan? Va holbuki, biz Senga tasbih, hamd aytib va Seni ulug‘lab turibmiz”, - dedilar. U : “Men siz bilmaganni bilaman”, -dedi. Va Yaratgan Odamga (yaratilgan va yaratilajak) barcha narsalarning ismini o‘rgatdi. Allohning marhamati bilan Alloh ma’rifati Odam(a.s) ga ko‘chdi, farishtalar oldida Odam (a.s) mavqei ulug’landi. Baqara surasida Odam (a.s) qissasi yana davom etadi: “Esla farishtalarga: “ Odamga sajda qilinglar!” deganimizni, magar iblis bosh tortdi, mutakabbirlik qildi va kofirlardan bo‘ldi”[9] . Farishtalarga sajdani buyurib Yaratgan qoshida Odamga yuksak maqom berildi. Ammo bu sajda ibodat emas edi, balki ulug’ musavvir Allohning hikmati bo‘lgan Odamni

[6] Bozorova N. “Alisher Navoiy g‘azallarida ko‘ngil obrazi” . –T., 2004.-B. 45
[7] Shayz Muhammad Ahmad Naqshbandiy. “Tasavvuf va nafs tarbiyasi”G’.G’ulom nashriyoti.-Toshkent 2023-B .03
[8] Falsafa qomusiy lug‘at. –T.: “Sharq”. 2004. –B 399
[9] Qur’oni Karim va o‘zbek tilidagi ma’nolari tarjimasi. Sharq nashriyoti. 2009. 6--bet

qutlash ma’nosida edi. Qur’oni Karim oyatlarida yozilishicha “farishtalarda Allohning amriga isyon qilish tabiati yoq”[10] , faqat iblis sajda qilmadi. Ayni shu ondan boshlab Odam (a.s) va uning qiyomatgacha tug‘iladigan zurriyotlari bilan iblis orasida dushmanlik - raqiblik vujudga keldi. “Va ey Odam, sen o‘z jufting ila jannatda maskan top. Unda nimani xohlasalaringiz, yenglar osh bo‘lsin va mana bu daraxtga yaqin kelmanglar, bas u holda zolimlardan bo‘lasizlar” , – dedik. Alloh taolo Odamga yana bir marhamat qildi va Havvo onamiz bilan jannatda baxtli yashashlari uchun ne’matlarni muhayyo qildi. “Va mana bu daraxtga yaqin kelmanglar, bas, u holda zolimlardan bo‘lasizlar” [11], dedik, Yaratganning insonga ba’zi narsalarni man qilishi uni irodali bo‘lishiga undaydi, shariatning amridan chiqish esa zulm sanaladi, Islom dinida zulm katta gunoh sanalib qoralanadi. Shundan so‘ng shayton Odamni vasvasa qilib ahdini unuttirdi. “Ilohiy hukm o‘qildi: “Ba’zingiz ba’zingizga dushman bo‘lib tushinglar, sizlarga yer yuzida qarorgoh va bir muddat huzur qilish bordur”, – dedik. Bas Odam o‘z Robbisidan so‘zlarni qabul qilib oldi, keyin U Zot uning tovbasini qabul qildi. Albatta, U tovbani qabul qiluvchi va rahimli Zotdir”[12] .

Shu tariqa oshiq – ma’shuqa – raqib obrazlari Odam Ato – Havvo onamiz va Shayton Alayhilana uchligi negizida shakllana boshladi. Lutfiy Devonidan o‘rin olgan g‘azallrida ham oshiq – Allohga oshiq bo‘lgan shoir qalbi, ma’shuqa – Allohga bo‘lgan Ilohiy ishq , raqib-nafs obrazlari yangicha talqinda namoyon bo‘ladi. Lutfiy g‘azallarida kelgan bu obrazlar tahliliga o‘tamiz:

Yo‘q turur yolg‘uz bu Lutfiy joniga javri raqib,

Qayda bir dono durur, ul javri nodon tortadur.

Ya’ni, Raqib – dushmanning jabri faqat Lutfiy jonigagina ozor bermaydi, qayerdaki bir dono bo‘lsa, u doim bir nodonning jabrini tortadi;

Rahm aylamas habib, raqibdin ne ko‘z tutay,

Qilmas vafo chu yaxshi – yamondin ne foyda?

Ma’lumki tasavvufiy – irfoniy asarlar insonni ezgu amallar qilishga, mehr oqibatli, shafqatli, go‘zal axloqli bo‘lishga targ‘ib qiladi, bu yo‘l orqali insonlarni komil inson bo‘lishga undaydi. Misrada aytiladiki do‘st rahm qilmas ekan, dushmanimdan nimani kutay, yaxshi inson vafo qilmas ekan, yomondan vafo kutishning ne foydasi bor.

Quyida beriladigan g‘azalning to‘liq matnida bu obrazlarning irfoniy vazifasi yaqqol ko‘zga tashlanadi:

Ey, jafochi, tut g‘animat ko‘rkning davronini,

Kim, kishi topmaydurur bu davrning poyonini.

Ont ichibmen go‘iyokim ahdi husningda begim,

Qilmagaysen bir jarohatliq ko‘ngul darmonini.

Bu jamoli yuzi ko‘zkim senda bordur ongladim,

Kim, tan ichra qo‘ymagaysen hech oshiq jonini.

Yuzing imon nuridur, saqla raqibdin pardada,

Saqlasa yaxshi kishi iblisdin imonini.

Ishq uchun oshiqni tengri yorlaqab hech so‘rmagay,

Chun yaratmish ko‘zu qoshu g‘amzai fattonini.

Rahm emastur ulki ko‘z yosh etdi oshiq ohidin,

[10] Tafsiri Hilol. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.oltinchi juz Hilol nashr 2023. 35-bet
[11] O’sha manba. –B. 37
[12] Tafsiri Hilol. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.oltinchi juz Hilol nashr 2023, -B. 37

G‘amzaning tig‘ina suv berdiki to‘kkay qonini.

“Ne keturding, - desalar mahsharda, - Lutfiy dunyadin?”,

Ko‘rguzay bag‘rimdagi novaklaring poykanini[13] .

“ Tolib – oshiq, Matlub esa ma’shuq, ya’ni, Vujudi mutlaqdir. Shoir ilohiy husnni jumlai olamning g‘olibi deb aytadi. Ma’lumki tasavvufda Alloh o‘z qudratini, husnini namoyish qilish uchun barcha ashyolarni yaratdi, deyilgan. Jumladan, tabiat ham Uning husnini, qudratini ko‘zgu kabi jilvalantiradi. Ilohiy husn birlamchi bo‘lsa, narsalar soya kabi ikkilamchidir”[14] . Bu hayotning ko‘rkiga oshufta bo‘lib qolmagin u o‘tkinchi, uni g‘animat tut, baribir uni oxiriga yeta olmaysan. Sening husningning tengi yo‘qdur.

Shoir Alloh jamoliga oshiq, uning hajrida ko‘ngullar jarohatlanadi. Majoziy ishq tarannum etilgan ushbu g‘azalda barcha mavjudot va maxluqot Vujudi mutlaq istagi va go‘zalligining aksi sifatida vujudga kelgan, bunday go‘zallikni ta’rif-tavsif etib, o‘zida Yaratgan tajalliysini aks etgan inson orqali Allohning Musavvirligini, qudratining cheksizligini kuylaydi. Allohning jamoliga oshiq banda o‘z iymonini iblisdan omon saqlashi kerak.

[13] Lutfiy. Devon. 266-bet

[14] Rafiddinov S. “Majoz va haqiqat’. –Toshkent, “Fan”, 1992;